

5. Quldoshev, G., Farmanov, N., Xoliqov, A., Isayev, M., Omonov, S., Shodiyeva, Z., ... & Nematullayev, O. (2024). Broyler jo‘jalarining mahsuldorligini oshirishda Kufestrol preparatining farmakologik xususiyatlarining tavsifi. *BIO Web of Conferences* da (118-jild, 01019-bet). EDP fanlari.

SO'NGGI YILLARDA TURIZMNING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJI

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Xonkeldiyeva Mashhura Jaloliddin qizi

mashhura9966@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sharafutdinov I.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistondagi manzilgohlar aro sayohatlar va ularning iqtisodiy turizmga tutgan o'rni haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Tarixiy joylar, tog' tizmalari, cho'l-sahrolar, infratuzilma, jahon bozori, aholi bandligi, memuar asarlar, ko'l, ko'hna shaharlar.*

THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN IN RECENT YEARS

Chirchik State Pedagogical University

Faculty of Tourism, student of the 3rd stage

Khonkeldiyeva Mashhura Jaloliddin's daughter

mashhura9966@gmail.com

Scientific advisor: Sharafutdinov I.

Abstract: *In this article, destinations in Uzbekistan are described about inter-travel and their role in economic tourism.*

Key words: *Historical places, mountain ranges, deserts, infrastructure, world market, population employment, memoirs, lake, old cities.*

Ajdodlarimizning sayr-sayohatlarini ko'z oldimizga keltirish uchun “Avesto”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Qirq qiz”, “Tohir va Zuhra” kabi o‘nlab dostonlar, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi badiiy, ilmiy, geografik asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ayniqsa, buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temurning jahonni kezishi, Boburning Hindiston tomon sarguzashtlari va u yerda kechirgan hayotiy tafsilotlari sayr-sayohatning mazmunini yanada to‘ldiradi. Inson kamolotini ta‘minlash, sihat-salomatligini doimiy ravishda yaxshilab borishda sayohatlarning

(ko‘l yoqalarida tunash, kemalarda yurish, tog‘larga chiqish va hokazo) amaliy mohiyatlarini sharq tabobatining sultoni Abu Ali ibn Sino ilmiy jihatdan o‘rganib, ularni meros qilib qoldirganligi bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir.

Yurtimizning geografik tuzilishi juda xilma-xildir. Ya’ni sharqda Tyan-Shan tog‘larining shohobchalari (davomi), janubda Turkiston, Hisor tog‘lari o‘rtada esa Zarafshon, Nurota tizma tog‘larining suvli hamda ko‘kalamzor maydonlarida aholi ko‘proq yashaydi. Shu sabab u yerlarda dam olish, hordiq chiqarish, sog‘lomlashtirish maskanlari ko‘plab qurilgan. Respublikaning g‘arb va shimol tomonlari cho‘l-sahrolar bilan tutashgan bo‘lsada past, yassi tog‘lar bilan o‘ralib, Chimqo‘rg‘on, Arnasoy, Kattaqo‘rg‘on kabi suv omborlari, katta-kichik sun‘iy ko‘llarning nam havosi ekologik jihatdan tabiiy muvozanatni saqlab turadi.

Orol dengizi muammolari ham asta-sekin hal qilinish arafasidadir. Respublikamizda turizmning shakllanishi va rivojlanishi haqida bir qator ilmiy-ommabop kitoblar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilgan. Ular orasida mutaxassis olimlar R.Abdumalikov, T.X.Xoldarov va boshqalar tomonidan tayyorlangan dasturlar, o‘quv-qo‘llanmalar muhim ahamiyatga ega. Respublika turizmi tarixida I.G‘.Xolmurodov, V.I.Kucheryavix (Samarqand), V.Ratsek, A.V.Kolbinsev (Toshkent) kabi iqtidorli mutaxassislarning o‘rni e’tiborga loyiqdir.

O‘zbekistonda turizmni rivojlanishi yuqoridan berilgan ko‘rsatmalar asosida faoliyat ko‘rsatib keldi. Endilikda davr talablariga mos ravishda tarixiy shaharlarga sayr (ekskursiya) uyushtirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu yo‘lda katta-katta shaharlar va chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilarni Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda qabul qilish, ularga madaniy xizmat ko‘rsatish borasida yuqori tajribalarga erishildi. Mahalliy sharoitda o‘quvchi-yoshlar va talabalarning sayr-sayohatlarini uyushtirish ham yuqori saviyada amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarni markaziy shaharlardagi (Samarqand, Buxoro, Xiva va hokazo) tarixiy-madaniy joylar bilan tanishtirishda katta faoliyat ko‘rsatildi. Turizm ishlari asosan jamoatchilik asosida boshqarilmoqda. Ya’ni yirik shaharlar va viloyat markazlarida tashkil etilgan turistik klublar, seksiyalar turizm harakatining asosini tashkil etdi.

Ilg‘or tajriba va imkoniyatlarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari hamda ba’zi bir umumta’lim maktablarda turistik klub (seksiya) tashkil etilgan. Ularning faoliyatida ommaviy piyoda yurish sayohati va turizm bo‘yicha musobaqalar (slyot) tashkil etish, viloyat hamda respublika musobaqalarida ishtirok etish ustuvor turar edi. Bunday jamoalarda turistik faollarni tayyorlashga ham alohida e’tibor berilgan.

Respublika turizmining rivojlanish tarixida Samarqand sayohatchi tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu to‘g‘risida R.Abdumalikov va

T.X.Xoldarovlarning ba’zi bir ma’lumotlari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Samarqand eng qadimiy shahar sifatida tarixiy obidalarga boy bo’lishi bilan jahonga mashhurdir. Shu sababdan bu yerga eramizdan oldingi 327-yilda bosqinchilik maqsadida kelgan Aleksandr Makedonskiy talon-tarojlik bilan shug’ullangan bo’lsada, 1865–1870-yillarda rus bosqinchilari, sobiq ittifoq davrida esa markaz rahbarlari ham shaharni va baland minoralarni ko’rib lol qolishgan. Umuman olganda, Samarqand o’zining qadimiy arxitektura qurilishi va tarixiy madaniy obidalari orqali yurtimizning shon-shuhrati hisoblanadi. Shu sababdan o’tgan davrda ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan sayr (ekskursiya) va piyoda yurish turizmi mazmun va mohiyat jihatdan e’tiborga loyiq.

Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo’yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So’nggi yillarda turizm jahon eksportida o’zining ulkan hissasiga ega bo’ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. So’nggi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 marta turizmdan keluvchi daromad 60 marta oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi. Xususan, Ozbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, xizmat korsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bolgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek “Barchamizga ayonki, xizmat korsatish sohasi iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Jahon tajribasi bugun aynan ushbu soha yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta’minlash, odamlarning farovonligini oshirishda etakchi orin tutishini korsatmoqda”. Darhaqiqat, hozirgi kunda xizmat korsatish tarmogining muhim tarkibiy qismi bolgan turizm sohasini jadal sur’atlarda rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yonalishlaridan biri hisoblanadi. Turizm dunyo tamaddumining bosh gultoji bolib, hozirgi kunda sayohat insoniyat maqsadlarining asosini tashkil qilib kelmoqda. Ayniqsa, milliy turizmning rivojlantirish istiqbollari, Ozbekistonda turizm industriyasining jahon bozoridagi mavqeini oshirishga komaklashadi. Fikrimizning isboti sifatida bugungi kunda turizm sohasida katta yutuqlarga erishilayotganligi, tez sur’atlar bilan osib borayotganligi, yangidan – yangi mehmonxonalarning barpo etilayotganligi, ishchi orinlari sonining kopayishi, malakali mutaxassislarning ortib borishi, turistlar oqimining yildan – yilga kopayayotganligini ta’kidlab otishimiz joiz deb hisoblaymiz. Albatta Ozbekistonning qulay iqlim sharoitlari va oziga xos landshaftini inobatga olganda sport va ekologik turizmning rivojlanishi uchun barcha asoslar mavjud. Farg’ona vodiysi va Toshkent viloyati ajoyib tog’ tizimlari, gullagan vodiylar va ajoyib tog’ daryolariga boy. Tog’ning toza havosi, yil davomida quyoshli kunlarning koplighi, ajoyib tog’ manzaralari nafaqat Ozbekiston fuqarolarining, balki Qozog’iston, Qirg’iziston va

Tojikiston kabi qoshni mamlakatlarning aholisi ham tashrif buyuruvchi turizm obyektlariga aylanishiga imkon beradi. Ozbekiston hududida mineral suvlarning turli xil turlari keng tarqalgan, mamlakatdagi 300 dan ortiq shifobaxsh yer osti mineral suv manbalariga koʻplab odam tashrif buyuradi.

Chimyon va Tortkol kabi togʻ – changʻi sportini rivojlantirish mumkin bolgan bir qancha togʻ maskanlari mavjud. Baland qorli togʻlar, alpinizm, speleoturizm, daryo turizmi kabi turli togʻ turizmi turlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shifobaxsh giyohlarning koʻpligi turli xil ekologik turlar, turli giyohlar va osimliklar yigʻish uchun turlarni tashkil etishga imkoniyat yaratadi. Bu esa koʻplab chet ellik turistlar orasida qiziqish uygʻotadi. Turizmning hozirgi holatini baholar ekanmiz, shuni qayd etish muhimki, Ozbekistonda infratuzilmaning rivojlanish darajasi chet ellik turistlarning ehtiyojlarini toʻliq qondira olmayapti. Infratuzilmaning rivojlanmaganligiga raqobat va takomillashishni ragʻbatlantirish imkonini bermagan avvalgi maʼmuriy-buyruqbozlik tizimi sababchi hisoblanadi. Infratuzilma yetarlicha rivojlanmagan taqdirda turistlar oqimini kopaytirish va shunga mos ravishda valyuta tushumini kopaytirish mumkin emas. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmaning ahvoli turizmning rivojlanishi va mamlakat imidjini shakllantirishga bevosita taʼsir korsatadi. Avvalo, shuni alohida qayd etish lozimki, Ozbekiston Respublikasi mustaqillikka erishmaguncha turizmga yetarlicha eʼtibor qaratilmagan. Respublikaning turistik salohiyati togʻrisda obyektiv maʼlumotlar va reklama umuman bolmagan. Turizm, xizmat korsatish va kongilocharlik infratuzilmasi rivojlanmagan, turistlarga xizmat korsatish darajasi past bolib, jahonning yetakchi turistik korxonalar bilan aloqalar boʻlmagan desa ham boʻladi. Hozirda Ozbekiston hududida turizm infratuzilmasi bir tekisda taqsimlanmagan. Toshkent shahri va viloyatida respublika turizm salohiyatining 36 % qismi jamlangan. Yirik infratuzilma salohiyatiga tort viloyat (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm) va Toshkent shahri ega, Fargʻona vodiysi 19% turizm infratuzilmasiga ega. Ozbekistonda iqtisodchi olimlaridan M.Pardaev, R.Atabaev, I.S.Tuxliev, F.X.Kudratov, N.Tuxliev, T.Abdullaeva, A.S.Soliev, M.R.Usmonov, M.M.Muxammedov, D.K.Usmanova, M.Xoshimov, A.Norchaev, B.Turaev, O.X.Xamidov, A.A.Eshtaevlar turizm sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Turizm iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida turistlar qabul qiluvchi mamlakatga daromadni keltiradi, yuqori valyuta tushumini taʼminlaydi, aholini ish bilan bandlik darajasini oshiradi. Turistlarga xizmat qilish uchun mehmonxona kerak boladi. Bu yerda ular ovqatlanishi lozim. Turli tomoshalarga kiradilar va ularda qatnashadilar. Kop hollarda agar ular xorijiy turistlar bolsa, valyuta tushumining kopayishini taʼminlaydi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy soha hamdir. Buning iqtisodiy samaradorligi bilan birga maʼnaviy, ruhiy va intellektual ahamiyati ham juda katta. Shu tufayli ushbu sohaga davlat alohida eʼtibor berib, maʼlum imtiyozlar ham belgilaydi. Odamlar bu imtiyozlardan faqat turist bolganliklari uchun

foydalanadilar. Bu ham turizmning oziga xos xususiyati va katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan dalolat beradi. Imtiyozlar turistlarning bojxona postlaridan o'tishda, soliq tolashda, chetga chiqishda pasportiga ruxsat berishlarida, avia va temir yo'l transportlariga chiptalar olishda, ularni rasmiylashtirishlarda namoyon boladi.

Turizm mahalliy aholi hayotiga ijobiy hamda salbiy ta'sir korsatishi mumkin. Ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: (ish orinlarini yaralishi; (daromadni kopayishi, mahalliy aholini yashash darajasini oshishi; (urbanizatsiya jarayonini tezlashishi, shaharcha xizmat, infrastruktura, madaniyat tashkilotlarini rivojlanishi; (ijtimoiy va madaniy jarayonlarining tezlashishi; (mahalliy madaniyat ochoqlarning yaralishi, xalq ijodiyoti, an'analari, rusumlarini rivojlanishi; (qishloq xojaligi mahsulotlari va mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlarga talabni oshishi; (mahalliy madaniy yodgorliklarni tiklanishi va muhofazasi;(tabiiy komplekslarning kengayishi;(mintaqa jozibadorligini oshishi; (mahalliy madaniy hayotni jonlanishi; Salbiy xususiyatlari quyidagilar: - malakasiz mehnat ulushining osishi; - umumjamiyat normasini buzulishi oshishi (ichkilik, fohishabozlik, bezorilik); - oila “eroziyasi” (oilaviy ajralishlar, yoshlarni hayotga yengil qarash kelishmovchiliklar va h.k); - mahalliy aholi va turistlar ortasidagi va boshqalar. O'zbekistonda turizmning rivojlanish holatlarini tahlil qilar ekanmiz, yurtimizda turizm sohasiga bo'lgan e'tibor oshganini va tashrif buyuruvchilar salmog'i ko'payganini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyeva G.I”Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o’rni”. T.:O’zbekiston faylasuflar jamiyati,2011.
2. Aliyeva Mahbuba, Mirzayev Murodjon”Turizm asoslari” T.:O’zbekiston faylasuflar jamiyati, 2011.152-154b
3. Mirziyoyev, S. (2018). 2017-2022 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi. Tashkent
4. The Official Order of Stay of Tourists in Uzbekistan for the Period of the Coronavirus. In www.uzbektourism.uz, www.uzbektourism.uz (p. Uzbekistan). T.: 2010
5. Ziyonet.uz.